

ALISHER NAVOIY MUSAMMATLARINING O‘RGANILISHI XUSUSIDA

Bo‘ritosh NURBADALOVA

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

bnurbadalova@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677024>

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Alisher Navoiy musammatlarining shakllanishi, janriy xususiyatlari hamda ularning navoiyshunoslikdagi talqini musammatlarining o‘rganilishi, xususan adabiyotshunos olim Abdurashid Abdug‘afurovning shu mavzudagi tadqiqoti yuzasidan fikr yuritiladi. Navoiy musammatlari nafaqat badiiy mahorat namunasi, balki ayrim g‘azallarning asl matnini tiklashda ham muhim manba vazifasini bajarishi ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher, Navoiy, Abdurashid Abdug‘afurov, musammat, muxammas, g‘azal.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются формирование, жанровые характеристики и интерпретация мусамматов Алишера Навои в науковедении, в частности, исследования литературоведа Абдурашида Абдугафурова по этой теме. Показано, что мусамматы Навои являются не только образцом художественного мастерства, но и служат важным источником для восстановления оригинального текста некоторых газелей.*

Ключевые слова: *Алишер, Навои, Абдурашид Абдугафуров, мусаммат, мухаммас, газель.*

Abstract. *This article discusses the formation, genre characteristics and interpretation of Alisher Navoi's musammats in Navoi studies, in particular, the research of literary scholar Abdurashid Abdugafurov on this topic. It is shown that Navoi's musammats are not only a model of artistic skill, but also serve as an important source for restoring the original text of some ghazals.*

Keywords: *Alisher, Navoi, Abdurashid Abdugafurov, musammat, muxammas, ghazal.*

Lug‘aviy ma‘nosi “ipga terilgan marvarid” bo‘lgan arabcha musammat so‘zi adabiyotshunoslikda asosan alohida - alohida qofiyalanuvchi bandlardan iborat she‘r shaklini anglatadi.

Professor A.Hayitmetov musammatlarning yetakchi belgilari haqida fikr yuritarkan, g‘azal, muxammas, mustazod, musamman mavzu jihatidan ham shakl jihatidan ham bir biriga yaqin, ularning barchasi g‘azaldan o‘sib chiqqan, deb yozadi. [2.67] Uningcha musammatlar g‘azalning tasvir imkoniyatlarini kengaytirish sababli yuzaga kelgan janrdir. Shunga qaramay, Navoiy musammatlarining yozilish tarixini aniq belgilash qiyin. Aytish mumkinki, uning dastlabki namunalari Lutfiy g‘azallari asosida yuzaga kelgan. Adabiyotshunos Y.Is‘hoqov Navoiy Lutfiyning faqatgina dunyoviy g‘azallariga muxammas bog‘laganini ta‘kidlaydi. Ustoz olim A.Abdug‘afurov Sayyid Hasan Ardasher Lutfiyning qator g‘azallarini, jumladan

Laylatul mirojning sharhi sochi tobindadur,

Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur -

gʻazalini yoddan oʻqib yurishini, Navoiy ustozini ota oʻrnida koʻrib, uning yuksak didini qadrlagani va Sayyid Hasan Ardasherga nihoyatda maʼqul tushgan ushbu gʻazalga taxmis bogʻlaganini yozgan. Darhaqiqat, Navoiy Lutfiyning sheʼriyat bilimdonlari eʼzozlagan gʻazallariga taxmis bogʻlagan.

Ey soching shaydo koʻngullarning savodi aʼzami,
Halqa-halqa ruhning sarmanzilidur har hami.

Yoki

Koʻktadur har dam figʻonim koʻrgali sen mohni,
Daʼvii mehringga tonuq tortadurmen ohni—

Shuningdek,

Ey jamoling loyazolu bebadal husnung jamil,
Oy yuzungdur ahsani taqvim uchun ravshan dalil—

matlaʼli gʻazalga musaddas bogʻlagan.

Ushbu musammatlar dastlab muxlislari tomonidan tuzilgan devonga kiritilganini hisobga olsak, ular Navoiyning yoshlik yillariga mansubdir. “Bu musammatlar Navoiyning yoshlik vaqtlaridayoq lutfiyona asarlar yoza olish qobiliyatiga ega boʻlganligini, soʻnmas tugʻma isteʼdodini namoyish etadi. Navoiy tomonidan qoʻshilgan misralar Lutfiy baytlari bilan toʻla-toʻkis hamohang boʻlib chatishib ketadi, gʻazal mavzuyini yanada kengroq, mukammalroq ochilishiga xizmat qiladi, obrazlarga yorqinlik baxsh etadi.” [1.96]

Navoiy ijodi haqida qimmatli va muhim tadqiqotlar olib borgan H.Sulaymonov shoir ijodiy merosida turkcha muxammaslar sonini 10 ta deb koʻrsatadi. Muxammaslarning uchtasi mavlono Lutfiy gʻazallariga, qolganlari esa Navoiyning oʻz gʻazallariga bogʻlagan taxmislardir. A.Abdugʻafurov shu kabi xulosalarga tahrir kiritib, ilm ahliga Navoiyning 7 band 35 misradan tashkil topgan 11-taxmisini maʼlum qilgani tahsinga loyiq. Olimning aniqlashicha, taxmisning soʻnggi bandidagi taxallusli misralar oʻrni almashib qolishi natijasida Navoiyning Husayniy gʻazaliga taxmisi Husayniyning Navoiy gʻazaliga taxmisi sifatida talqin qilingan.

“Xazoyin ul-maoniy”dagi qolgan 10 ta musammat, jumladan, 7 muxammas 2 musaddas va 1 musammaning hammasi buyuk shoirning oʻz gʻazallari asosida yaratilgan. Aytish kerakki, Navoiy asosan shuhrat tutgan gʻazallarini musammatlar shakliga keltirgan. Masalan,

Ochmagʻay erding jamoling olam aro koshki,

Solmagʻay erding bori olamgʻa gʻavgʻo, koshki —

gʻazali haqida “Xamsat ul-mutahayyirin”da “el orasida shuhrat tutub erdi” va “...podshoh hazratlarining suhbatlarida dogʻi koʻp oʻqilur erdi” deb yozadi.



A.Abdug‘afurovga ko‘ra, “...musammatlarning o‘z xususiyat va belgilari ham mavjudki, bular tasvir va kechinmadagi nisbiy mukammallikda yuzaga chiqadi. Chindan ham musammatlarda, ulardagi kengroq hajmiy imkoniyatga muvofiq holda, mavzu chuqurroq ishlanadi, obrazlar qiyofasi va xatti-harakati, ruhiy holati va kechinmalari yangi-yangi qirralarda to‘laroq ochiladi, detallarda aniqlik, mantiqiy dalillar bilan asoslash kuchayadi.[1.98]. Qolaversa, Navoiy musammatlari bir qator g‘azallarning aniq matnini tiklashga ham yordam beradi. Masalan,

Dema, ey ko‘z kim, ne qilding gar seni ko‘r istasam

Bir boqib yuz ming balog‘a muhtalomu qilmading —

baytidagi birinchi misrani shoir muxammas yaratish jarayonida tushurib qoldirgan.

Tayinki, o‘z g‘azaliga taxmis bog‘lash an‘anasini Navoiy boshlab berdi. Navoiydan keyin ayni hol ko‘p turkigo‘y shoirlar ijodida davom etdi. Xulosa fikrimiz shuki, mumtoz adabiyotda musammatning g‘azaldan keyingi yetakchi o‘rin egallashida, muxammasnavislik an‘anasining davom etishida Alisher Navoiyning o‘rni beqiyos.

Umuman olganda, ustoz adabiyotshunos A.Abdug‘afurovning Navoiy lirikasi, xususan musammatlari haqidagi izlanishlari navoiyshunoslik rivojidagi muhim qadamlardan biri bo‘lgani ayon.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdug‘afurov Abdurashid. 1979. Erk va ezgulik kuychilari: Ilmiy-tanqidiy maqolalar. - Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti.
2. Hayitmetov Abduqodir. Navoiy lirikasi.-T.:Fan, 1961– 296 b.
3. Xondamir, G‘iyosiddin Makorim ul-axloq: tarixiy asar /Xondamir. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 232 b.
4. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. / Mas‘ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. — Toshkent: Sharq, 2016. 456 b.
5. Abdullayev H.D. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. – B. 152